




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar- sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2980,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 102,1 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 2948,9 mlrd.so'mni (101,7 foiz), o'rmon xo'jaligida – 3,2 mlrd.so'mni (102,3 foiz), baliq xo'jaligida – 28,2 mlrd.so'mni (157,8 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Tomdi (109,6 foiz), Navoiy shahri (108,2 foiz), Uchquduq (106,0 foiz), Nurota (103,2 foiz), Karmana (102,5 foiz), Konimex (102,1 foiz), Xatirchi (101,9 foiz), Zarafshon shahri (101,8 foiz), Qiziltepa (101,5 foiz) hamda tumanlarida kuzatildi. Navbahor (100,3 foiz), tumanida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Xatirchi tumanining ulushi 31,8 foizni tashkil etdi va hududlar boyicha etakchilik qilmoqda, xuddi shunday, Qiziltepa tumani 20,3 foiz , Navbahor tumani ravishda 15,9 foiz, va Karmana tumani 13,7 foiz, ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Nurota (7,6 foiz), Konimex tumani (4,6 foiz), Tomdi (3,0 foiz), Uchquduq (2,3 foiz), Navoiy va Zarafshon shaharlarida (0,6 va 0,3 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2018 yilning yanvar - sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 91,1 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 107,9 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 83,9 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 14,2 foizi – fermer xo'jaliklariga, 1,9 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 897,0 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 91,1 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 30,7 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. 2018 yilning yanvar – sentyabr oylarida 202,3 ming tonna (74,4 foiz) don, 64,2 ming tonna (105,4 foiz) kartoshka, 191,5 ming tonna (102,5 foiz) sabzavotlar, 49,2 ming tonna (100,7 foiz) poliz, 76,1 ming tonna (107,5 foiz) mevalar, 64,0 ming tonna (104,4 foiz) uzum yig'ib olindi.

Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



Poliz

- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Fermer xo'jaliklari


Chorvachilik



2018 yilning yanvar - sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2023,0 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 107,9 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 69,3 foizni tashkil etdi.

2017 yilning yanvar- sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 117,2 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan 6,2 foizga ko'p), 339,7 ming tonna sut (7,1 foizga ko'p), 255,5 mln.dona tuxum (4,4 foizga ko'p), 3,6 ming tonna jun (3,9 foizga ko'p), 248,1 ming dona qorako'l teri (4,3 foizga ko'p), 0,8 ming tonna asal (17,2 foizga ko'p), 6,8 ming tonna baliq (56,4 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.


Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 93,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,4 foizi, tuxumning 71,2 foizi, junning 72,3 foizi, qorako'l terining 81,1 foizi, asalning 94,4 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi


Go'sht (ming tonna)




Sut (ming tonna)





Tuxum (mln. dona)



Jun (tonna)




Qorako'l teri (ming dona)**Baliq (tonna)**

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni - 455,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 195,7 ming boshga, qo'y va echkilar 2126,2 ming boshga, otlar – 19,4 ming boshga, parrandalar 2249,7 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 19,7 ming boshga (4,5 foizga), shu jumladan sigirlar – 12,7 ming boshga (6,9 foizga), qo'y va echkilar – 151,1 ming boshga (7,7 foizga), otlar – 2,9 ming boshga (17,9 foizga), parrandalar – 87,1 ming boshga (4,0 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yining 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,6 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 22,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 65,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 12,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 32,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 55,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 11,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, xuddi shuningdek parrandalar umumiy sonidan 11,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 68,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 20,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

0 371 230-84-43

0 371 230-84-44

0 436 223-23-40